



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SURXONDARYO VILOYATI UZUN TUMANI HOKIMINING  
QARORI**

Uzun tumani, O'zbekiston ko'chasi 7-uy. 191100, tel.: (+99876) 44-73-545, uzun.t@exat.uz

2021 - yil 21 - dekabr

253-8-118-Q/21

Uzun tuman hokimligi

**Uzun tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tariflar  
miqdorini tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Dafn etish va dafn ishi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Dafn etish va dafn ishi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" 2011 yil 4 apreldagi 101-sod qarori hamda O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasiga asosan tuman hududidagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish maqsadida,

**QAROR QILAMAN:**

1. Tumandagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimligi:

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

sanitariya qoidalari va me'yorlariga qat'iyan rioxan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta'minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni yer to'g'risidagi qonun hujjalariغا muvofiq amalga oshirsin.

3. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi hamda qabristonlarning ma'muriyat:

xizmatlar uchun qat'iyan belgilangan tariflar bo'yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko'rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o'z vaqtida va sifatli bajarilishini;

qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga

ega bo‘lgan inshootlarni o‘rnatish, ob’ektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta’minlasin.

4. Ushbu qaror “Bobotog‘ tongi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Xasanov zimmasiga yuklansin.

**Hokim**



**Tursunov B. B.**

Узун туман ҳокимининг  
2021 йил 21 декабрдаги  
253-8-118-Q/21-сон қарорига  
1-илюва

**Uzun tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish  
bo‘yicha tariflar miqdori**

so ‘m

T\r	Xizmat turi	O‘lchov birligi	Tuman	Tuman
1.	Go‘r qazish	1 o‘ringa		
2.	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 o‘ringa	Bepul	Bepul
3.	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga		
4.	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o‘rin/kunga	Bepul	Bepul

\*Mahallalarda narxlar tafovut qilishi mumkin, shu sababli ustunlar soni ikkita.